RIVOJLANAYOTGAN JAMIYATDA AYOLLARNING O‘RNI

Toshkent amaliy fanlar universiteti O‘zbek tili va adabiyot kafedrasi o‘qituvchisi Ravshanova Gulruh Yaxshiboy qizi Tel: +998903949222

Toshkent amaliy fanlar universiteti O‘zbek tili va adabiyot yo‘nalishi 1- kurs talabasi Do‘smatova Ruxshona

Annotatsiya. Mazkur maqolada yurtimizda faoliyat olib borayotgan yosh-avlodlar, jumladan ayol va qizlarning roli, ularning davlat va jamiyatning muhim bo‘g‘inlarida samarali xizmatlarini qisman tahlilga ostiga oldik.

Kalit so‘zlar. Jamiyat, yurt, ayol va qizlar, statistik tahlil, BMT, tarqqiyot va imkoniyat.

Bugun barcha sohalarning shiddat bilan rivojlanayotganligi biz yosh-avlodni quvontirmoqda. Yangi avlodning bir vakili sifatida shuni aytishim mumkinki, yurtimiz tinch, osmonimiz musaffo. Bugun o‘qib, izlanib, yurtimning koriga yarayman degan farzand uchun barcha sharoitlari mavjud. Yurtboshimizning tashabbuskarona say-harakatlari, biz yoshlarga ochib berayotgan imkoniyat eshiklarini ko‘rib, o‘zim va barcha tengdoshlarimga faqat va faqat o‘qib, ilm istab, yurtga yaraydigan bir farzand bo‘lish kerakligini baralla aytgim keladi. Vatanimiz boshqa yurtlardan faqrqli o‘laroq biz o‘g‘il-qizlarga, millati va irqi, qolaversa, jinsidan qat’i nazar barcha imkoniyatlarni to‘la-to‘kis taqdim etmoqda. Qay sohaga qo‘l urmaylik, imkoniyat mavjud. Sport, madaniyat, ma’naviyat, ilm hamma soha biz uchun ochiq.

Men bu maqolamda, yurtimizda ayol va qizlarga qaratilayotgan e’tibor va imkoniyatlar haqida alohida to‘xtalmoqchiman. Bilamizki, biz ayol-qizlarga e’tibor azal-azaldan saqlanib kelingan. Shoirlar tili bilan aytadigan bo‘lsak, “Ayol-jamiyatning yuragi, oilaning ruhi, kelajakning tarbiyachisi” hisoblanadi. Haqiqatdan ham yurak butun organizmni harakatga keltiradi, hayot beradi.

Ayol ham jamiyatning asosiy hayot manbai, uni mehr, sabr va tarbiya bilan to‘ldiradi. Ayolning bilimli, ma’naviyatli va mehribon bo‘lishi kelajak avlodning sog‘lom, vatanparvar va ma’rifatli bo‘lib ulg‘ayishini ta’minlaydi. Ayolni e’zozlash – nafaqat insoniy burch, balki jamiyat taraqqiyotining eng muhim shartidir. Bir ayolning ko‘nglini yuksaltirish – bir avlodning kelajagiga nur sochish demak. Ayolning tabassumi uyga fayz, jamiyatga ezgulik, kelajakka ishonch, farzandlar qalbiga iliqlik, mehr-muhabbat kabi ulug‘ fazilatlarni uyg‘onishiga sabab bo‘ladi. Bugun atrofimizda faol ayollar qiyofasini ko‘rar ekanmiz qalbimizda o‘zgacha g‘urur va iftixorni tuyamiz. Ular oilada dilbar va xokisor ayol, mehribon ona, sevimli yor bo‘lsa, oliygohda, tashkilotda, jamiyatda faol tatdbirkor, mehribon ustoz, samimiy do’st va kelajakni ulg‘aytirayotgan zamonamizning qahramon onalaridir. O‘ylaymizki, bu timsollarni keltirib, ular nomiga xato jumlalarni keltirmadik, shunday emasmi? Fikrimiz isboti sifatida shuni aytishimiz mumkinki, birgina oliy va o‘rta ta’lim bo‘g‘inida faoliyat ko‘rsatayotgan ustozlarimizning aksaryati ayollardan iborat ekanligi barchamizga ma’lum va albatta faxrdir. Bu holat ayollarning qanchalik katta salohiyat egasi ekanligidan ham dalolatdir.

Bugun jamiyatimiz taraqqiyoti, avvalo, ayolga bo‘lgan munosabatimizda, unga yaratilayotgan imkoniyatlarimizda va uning salohiyatini to‘liq ro‘yobga chiqarishimizda o‘lchanadigan davrga kirdik. Ayolning qadri yuksalsa – jamiyatning ma’naviyati, oilaning mustahkamligi va kelajak avlodning kamoloti ham yuksaladi. Bugungi kunda O‘zbekistonda ham, jahon miqyosida ham ayollarning jamiyatdagi faol o‘rni sezilarli darajada kengaymoqda: ular siyosat, ta’lim, biznes, madaniyat va xalqaro tashkilotlarda yetakchi lavozimlarni egallab, barqaror taraqqiyotning muhim omiliga aylangan. Keltirilgan statistik ma’lumotlarga ko‘ra, yurtimizda mehnat faoliyatini olib borayotgan ayollarning ulishiga bir nazar tashlaydigan bo‘lsak, tibbiyot

sohasida: shifokorlar, hamshiralar va boshqa tibbiyot xodimlari 77 foizni, ta'lim sohasida: maktab, kollej va oliy ta'lim muassasalarida 74 foizni, iqtisodiyot va sanoat tarmoqlarida 46 foizni tashkil etmoqda. Ta'kidlash joizki, yurtimizda turli darajadagi davlat mukofoti sovrindorlari bo'lgan xotin-qizlar soni 2 ming 224 nafarga yetdi. Shundan bugungi kunga qadar 577 nafar ayol "Mo'tabar ayol" ko'krak nishoni bilan taqdirlangan bo'lsa, 1999-yilda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni bilan ta'sis etilganidan buyon **har yili t**a'lim, fan, madaniyat, san'at, sport, axborot texnologiyalari va jamoatchilik faoliyati sohalaridagi iqtidorli, tashabbuskor, o'z tengdoshlariga o'rnak bo'layotgan qizlarni rag'batlantirish maqsadida **8-mart — "Xalqaro xotin-qizlar kuni" arafasida "Zulfiya nomidagi davlat mukofoti"i bilan taqdirlanadilar. Bu mukofotga ega bo'lgan qizlar soni esa,** 2026-yilgacha jami **400 nafardan ortiqni tashkil etadi**. Yurtimizning 2 ming nafarga yaqin xotin-qizlari esa davlat va jamoat tashkilotlarida rahbar va boshqaruvchilik lavozimlarida xizmat qilib kelmoqda. Bu ko'rsatgichlar yurtimizdagi ayol va qizlarga bo'lgan ishonch va teng huquqiylikni qanchalik yuksak ekanligidan dalolat beradi. Bu ko'rsatgichlar jahon siyosiy maydonida quyidagi raqamlarni ko'rsatmoqda. 2026-yilda dunyo bo'yicha parlamentlarda ayollar ulushi o'rtacha 27% ni tashkil etmoqda. Ba'zi davlatlarda bu ko'rsatkich 40% dan oshgan; Biznes: Xalqaro tadqiqotlarga ko'ra, ayollar global miqyosda kichik va o'rta biznesning 30% dan ortig'ini boshqaradi; Xalqaro tashkilotlar: BMT va boshqa global institutlarda ayollarning rahbarlik lavozimlaridagi ulushi ortib bormoqda, biroq hali to'liq gender muvozanati ta'minlanmagan. Demak, ayolning ovozi – jamiyatning ovozi, ayolning huquqi – inson huquqi. Shu tamoyilni hayotga tatbiq etish bizni yanada adolatli, barqaror va farovon kelajakka olib boradi.

Bugun rivojlanyotgan jamiyatda ayollar uchun yaratilayotgan sharoitlar, ko‘plab davlatlar konstitutsiya va qonunlarida mustahkamlanib, ayol va qizlar uchun nafaqat ta’lim olish erkinligi balki, reproduktiv salomatlik va sog‘liqni saqlash xizmatlaridan ham keng ko‘lamda foydalanish imkoniyatlari kengaymoqda.

Xulosa o‘rnida shuni aytib o‘tish kerakki, bugungi dunyo ayoling huquqi va qadrini tan olayotgan, unga yo‘l ochayotgan davr. Va bu davr biz biz tengi yoshlar uchun ilm yo’lini yagona najot yo‘li deb bilgan holda, o‘qimog‘imiz, bilmog‘imiz va kelajakni birga qurishga iqtirorli va yurtparvar yoshlarning qo‘lidan tutib, ularga dastak bo‘lmog‘imiz darkor.

Adabiyotlar ro‘yhati

1. https://talimxabarlari.uz

2. https://www.un.org/womenwatch/osagi/conceptsandefinitions.

3. https://www.un.org/en/global-issues/gender-equality

4. https://ombudsman.uz